

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

9
2023



- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti

- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Qo'ng'irotboy Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinnbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Elektron nashr. 502 sahifa, 30-sentyabr, 2023-yil.

Muharrir:

Qurbanov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Rae Kvon Chung, Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyatni rahbari

Toshkulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof., O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar, fan, ta'lif, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport masalalari bo'yicha maslahatchisi o'rinnbosari

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinnbosari

Sharipov Qo'ng'irotboy Avazimbetovich, t.f.d., prof., TDIU rektori

Oblamuradov Narzulla Naimovich, i.f.n., dots., O'zR Tabiat resurslari vaziri o'rinnbosari

Djumaniyazov Maqsud Allanazarovich, Qoraqalpog'iston Respublikasi Tabiat resurslari qo'mitasi raisi

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlis qonunchilik palatasi deputati

Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinnbosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., TDIU Akademik faoliyat bo'yicha prorektori

Xudoqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMB birinchi prorektori

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlari va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor

Yuldashev Maqsud Abdullayevich, p.f.d., prof., TDIU Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori

Karimov Norboy G'aniyevich, i.f.d., prof., TDIU huzuridagi PKQTMO tarmoq markazi direktori

Hakimov Nazar Hakimovich, f.f.d. TDIU profesor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasи professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., prof., Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinnbosari

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., Toshkent arxitektura-qurilish universiteti katta o'qituvchisi

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktaranti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'onan davlat universiteti dotsenti

Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU Ilmiy tadqiqotlar va

innovatsiyalar departamenti rahbari

Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU huzuridagi Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq Markazi xorijiy hamkorlik bo'yicha mutaxassis

Ekspertlar kengashi:

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d., TDIU dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Imomqulov To'lqin Burxonovich, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,

O'zR Tabiat resurslari vazirligi,

O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Ichki turizmni rivojlanlantirishda davlatning o'rni.....	7
Dehqonov Burxon Rustamovich , tayanch doktorant	
Qishloq xo'jaligida sug'orish tizimlari boshqaruvini rivojlanlantirish yo'llari	11
Mirjamilova Hulkar Nurali qizi , assistent	
Yangi O'zbekiston sharoitida o'simliklar karantini tizimi faoliyatini takomillashtirish va iqtisodiy samaradorligini oshirish	15
Alimov Murodkosim Achilovich , mustaqil izlanuvchi	
"Yashil iqtisodiyot"da energetika sohasini investitsion holatining statistik tahlili	20
Umarov Faxriddin Umar o'g'li , katta o'qituvchi	
Yoqilg'i-energetika korxonalari moliyaviy barqarorligini ta'minlashda investitsion faoliyatning ahamiyati	26
Ergashev Muhibbek Aslam o'g'li , mustaqil izlanuvchi	
Tog'li hududlarda turizm biznesining rivojlanishi	31
Abduvakil Alimov Komil o'g'li , tayanch doktorant	
Ta'lim turizmining nazariy asoslari va O'zbekistondagi tendensiyalari.....	38
Maxmudova Nodira O'ktamovna , tayanch doktorant	
Turizmga innovatsion texnologiyalarni joriy qilish shart sharoitlari	43
Po'latov Ma'murjon Murodjon o'g'li , tayanch doktorant	
Mintaqaviy investitsion loyihalarining jozibadorligi tahlillari masalalari	46
Davlyatshayev Akmal Ashurmamatovich , dotsent, i. f. n.	
Yashil iqtisodiyotning tijorat banklaridagi ahamiyati va ularning raqamlashuvi.....	51
Maxmudova Muxlisa Qodirjon qizi , dotsent, PhD	
Turizmni rivojlanlantirishda "Tourism 4.0" konsepsiyasini joriy etish masalalari	57
Yuldasheva Dilnoza Ulug'bekovna , mustaqil tadqiqotchi	
Davlat tomonidan qishloq xo'jaligini moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish	62
Olikulova Feruza Mansurovna , PhD; Jabborov Jahongir Abduvohid o'g'li , magistrant	
Перспективные направления "Зелёной химии" для Республики Узбекистан.....	66
Султанходжаев Баҳтиёр Забиҳуллаевиҷ	
O'zbekistonda transport va logistika sohasini rivojlanlantirish strategiyasi	73
Usmonov Botir , magistr	
Hududlarda investitsion faollikni oshirishga qaratilgan mexanizmni takomillashtirish	78
Sunatullayeva Shaxnoza Xurshid qizi , tayanch doktorant	
Qurilish tarmoqlarida boshqaruv faoliyatining iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlili.....	82
Mirsodiqov Abdulla Tursunaliyevich , PhD	
Connection between interest rate on loans, cash flow and turnover of funds	87
Sharbat Abdullaeva, Professor; Sardor Abdullaev , the applicant	
Econometric Analysis of the Impact of IPO on the Market Capitalization of Companies	92
Shakhzod Saydullaev , PhD.	
Davlat xaridlarini takomillashtirishda byudjet mablag'laridan samarali foydalanishning mohiyati va zarurligi	101
Raximjonov Kamronbek Ilxomjon o'g'li , mustaqil tadqiqotchi	
O'zbekistonda to'lov tizimining raqamli transformatsiyasining o'ziga xos xususiyatlari.....	105
Otamurodov Shavkat Nusratillayevich , i. f. d. (DSc); Eshqulova Nasiba Normo'minovna , o'qituvchi	
Tijorat banki xizmatlarida ta'lim kreditining o'rni va uni takomillashtirish masalalari.....	110
Eldor Uskanov , mustaqil tadqiqotchi	
Korxonaning strategik boshqaruvini takomillashtirish	114
Maxmudov Nosir Maxmudovich , professor; Elmurodov Faxriddin Farxodovich , magistratura tinglovchisi	
Respublikada kichik biznesni moliya-kredit mexanizmlari orqali qo'llab-quvvatlash masalalari	120
Ergashev Otamurod Toshtemirovich , PhD	
Mulk iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda muammo va yechimlar	125
Ermatov Musojalil Komilovich , kafedrasi dotsenti v. b.; Abdunazarov Oybek Abdumatalibovich , katta o'qituvchi	



Using intelligent and decision support systems for developing University Curriculum: semi-automated need analysis approach	132
Abduraxmanov Zafar Batirovich; Ikromov Sayidolim Ismoilovich	
Challenges of Developing a Competitive Environment in the Context of Economic Liberalization.....	138
Akobirova Nodira Najmuddin qizi , assisntent	
Topical Issues of the Development of Recreational-Tourist and Military-Recreational Activities.....	141
Alimova Guzal Alisherovna , PhD in economics, docent	
Kreditlash jarayonlarida xulq-atvor iqtisodiyoti omilini joriy etish istiqbollari	146
Jo'rayeva Sevara Zakirovna , mustaqil izlanuvchi (PhD)	
Portfelli xorijiy investitsiyalarining milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli	152
Kamilova Iroda Xusniddinovna , PhD	
Exploring the Ethical Dimensions of Artificial Intelligence in Advancing Human Rights and Sustainability	156
Matkarimova Gulchekhra Abdusamatovna , Professor	
Tijorat banklarida muammoli kreditlar bilan ishslashning nazariy asoslari.....	163
Maxmudov Rahimjon Xamid o'g'li , mustaqil izlanuvchi	
Barqaror iqtisodiy o'sishga yalpi talab va yalpi taklif omillarining ta'siri.....	170
Nabiiev Ulug'bek Mirodiljon o'g'li , tayanch doktorant	
The potential advantages of implementing the Total Quality Education Management (TQEM) concept	175
Otakulov Makhamadjon , PhD	
Kichik yashil biznesni yanada rivojlanitirish imkoniyatlari	181
Raximova Kizlarxon Ne'matjon qizi	
Jamg'armalar investitsiyalar manbasi sifatida	185
Sadikova Ra'no Abdullayevna , i. f. n., dots.	
Davlat moliyasining moddiy asosini oshirish orqali iqtisodiy o'sishga erishish	188
Shamsiyev Shuxrat Sayfutdin o'g'li , mustaqil izlanuvchi	
Aholi turmush darajasini oshirishda ijtimoiy himoyaning o'rni	191
Sherjonov Sherjon Alijan o'g'li , mustaqil izlanuvchi	
Xo'jalik yurituvchi subyektlar to'lov qobiliyatini aniqlashning nazariy-uslubiy masalalari.....	196
Adashaliyev Baxtiyorjon Valisher o'g'li , dekan o'rinosari	
Kichik sanoat zonalari faoliyatini samarali boshqarish tamoyillari	203
Shodmonqulov Kamoliddin Murodillayevich , dotsent; Adilbekov Allayar Anvarbekovich , magistrant	
Aholini ijtimoiy himoya qilishda pensiya va ijtimoiy nafaqalarning o'rni.....	206
Aliyev Ma'ruf Komiljon o'g'li , mustaqil izlanuvchisi	
Использование методов управления для повышения эффективности производства на предприятиях.....	212
Алиева Надирахон Абдумаликовна , PhD. доц.; Тлеумуратова Мадинаабону Дилмурат кизи , ст. 3-курса	
Korxonalar moliyaviy barqarorligini ta'minlash mexanizmini takomillashtirish.....	217
Z. G. Allaberganova , kafedra dotsenti	
Davlat fiskal (byudjet-soliq) siyosatining aholi bandligiga ta'siri va uni takomillashtirish.....	222
Asatullayev Xurshid Sunatullayevich , i. f. n., professor	
O'zbekistonda iqtisodiyot tarmoqlariga raqamlı iqtisodiyotni shakllantirish omillari.....	228
Axmedova Yulduz Sunatullayevna , kafedra o'qituvchisi	
Moliyaviy risklarni baholash usullari, boshqaruvdagi yondashuvlari	232
Baymuratova Gulirayxon Tursunbayevna , kafedra dotsenti	
Sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda biznes jarayonlarini boshqarish .	236
Baxriyev Dilshod Rizvonkulovich , mustaqil izlanuvchi	
Tijorat banklarida investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning ekonometrik modellashtirish ko'rsatkichlari.....	242
Berdiyev Akram O'ktamovich , mustaqil izlanuvchi	
Innovatsion muhitni shakllanishi va rivojlanishida investitsiyaning zarurligi	253
Bobobekov Ergash Abdumalikovich	
Meva-sabzavotchilik klasterlarida yashil moliyalashtirishning nazariy asoslari va xususiyatlari	258
Botirov Erkinjon Xayitovich , kafedra dotsenti	



O'zbekiston Respublikasida xorijiy investitsiyalarni jalg etish orqali investitsion salohiyatni oshirish	263
G'aybullayev Odil Baxtiyarovich , kafedra dotsenti v. b.	
Tadbirkorlik subyektlarining innovatsion loyihamashtirishni qo'llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish	269
Jubanova Bayramgul Aymuratovna , PhD	
Soliq ma'muriyatichiligi va uni raqamlashtirishni ekspert baholash yo'llari	272
Ibragimov Boburshoh Bohodir o'g'li , i. f. d. (PhD), doktorant (DSc)	
Xalqaro standartlarga muvofiq buxgalteriya autsorserlari tomonidan moliyaviy hisobotlarni transformatsiya qilishni takomillashtirish	278
Islomov Alisher Baxtiyor o'g'li , mustaqil izlanuvchi	
O'zbekistonda moliyaviy hisob va hisobotni MHXSlariga transformatsiya qilishda asosiy vositalar hisobini tashkil etish masalalari	284
Qurbanova Shaxrinoz , tayanch doktorant	
Yerlarning degradatsiyaga uchrashi va oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar	288
Mamanazarova Nasiba Jo'rayevna , kafedra doktoranti	
Davlat sektorida ichki auditni tashkil etish xususiyatlari	292
Mamirjon Jalollidinov , mustaqil izlanuvchi	
Финансирование акционерных общества через рынок капитала	297
Муминов Шохжакон Суюнович , ассистент кафедра	
Необходимость развития предпринимательской и страховой деятельности риски на рынке Узбекистана	302
Муятдинов Махмуд Жалелович , независимый исследователь	
Инвестиционная привлекательность как фактор экономического развития страны	307
Назарова Гузал Баходировна	
Tijorat banklarida kreditlash jarayonlarini takomillashtirish masalalari	312
Nozima Abdullayeva , mustaqil tadqiqotchi	
Tijorat banklarining xizmatlar sohasini kreditlash amaliyotiga ta'sir etuvchi omillarning ekonometrik tahlili	316
Nurmuxammedov Abdijabbar Yunusovich , kafedra dotsenti v. b.	
Современное решение, которое положительно влияет на логистические услуги и резко снижает смертность на перекрестках	326
Тажимуратов Умид Рузматович, Баҳриев Иброҳим Исометдинович , кандидат медицинских наук, доцент; Жуманиёзов Эркин Худойберганович , кандидат медицинских наук, доцент; Тажимуратов Рузмат Отажанович , кандидат медицинских наук, Тажимуратов Абдусами Умид угли , ученик 10 класса	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida dividend siyosati va tendensiyalari tahlili	333
Temirov Abdulaziz Alimjanovich , kafedra dotsenti, i. f. n.	
Современное состояние инвестиционного потенциала Республики Узбекистан	339
Топилдиев Соҳибжон Раҳимжонович , DSc; Одилова Дилноза Барнаевна , PhD	
Portfelli xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli	345
Tosheva Ziroat Alikul qizi	
Kichik biznes subyektlarida raqamli texnologiyalardan foydalanishning ilmiy-nazariy jihatlari	349
To'rayeva Nafisa Odilovna , mustaqil izlanuvchi	
O dostizheniyakh Uzbekistana v realizации naionalnykh celей i zadach ustoychivogo razvitiya	355
Турсун Мухитович Ахмедов , i. f. d., prof.; Гавхар Рустамовна Хидирова , doktorant, i. f. f. d., doz.	
Vliyanie korporativnogo upravleniya v zelenoy ekonomike	359
Уринов Бобур Насиллоевич , заведующий кафедрой	
Ko'chmas mulkni soliqqa tortishning o'ziga xos xususiyatlari	366
Fayziyev Farrux Abdullaxojayevich , kafedra dotsenti	
Transport tizimi iqtisodiy rivojlantirish yo'naliishlari	374
Fayzullayev Javlonbek Sultonovich , DSc.	
Oliy ta'lif muassasalarida byudjet mablag'laridan samarali foydalanishning ayrim fundamental masalalari	382
Xayriddinov Sh. B. , mustaqil izlanuvchi	



Xalqaro raqamli valyuta bozorini rivojlantirish istiqbollari	385
Xolov Nabijon Qaxramonovich , PhD	
Nodavlat notijorat tashkilotlarning rivojlanishi va hozirgi shart-sharoitlari	391
Xusanov Otabek Nishonovich , PhD, mustaqil izlanuvchi	
Banklarining aktivlarini daromadliligini oshirish yo'llari.....	396
Elbusinova Umida Xamidullayevna , kafedra dotsenti	
Особенности методики проведения аудита затрат на производство.....	401
Хилола Икрамова Ровшан кизи , базовый докторант	
Ta'lim islohotlarining ma'naviyatdagi o'rni	407
Bekdavlat Aliyev	
O'zbekistonda tijorat banklari emission operatsiyalarining dolzarb masalalari	412
O'ktamova Nozima Narzulla qizi , kafedra dotsenti	
Moliyaviy barqarorligi tushunchasining konseptual mohiyati, turlari va asosiy tavsiflari	416
Eshquvatov Aziz Baxtiyorovich , mustaqil izlanuvchi	
XX asr jadid ma'rifatparvarlari Abdurahmon Toshkandiy va	
Abdulla Avloniy axloqiy konsepsiyalidagi umumiylilik va xususiylik.....	420
Abrorxon Asatulloyev Asatulloyevich , falsafa fanlari doktori (PhD)	
Yer resurslaridan foydalanishning iqtisodiy va huquqiy asoslari.....	424
Abdurahmanova Muqaddas Toxtasinovna	
Стратегии привлечения иностранных инвестиций для	
содействия устойчивому экономическому росту в	
Республике Узбекистан с акцентом на инициативы зеленого развития	431
Нилуфар Зикируллаева Дилмуродовна , аспирант	
Bank tizimi barqarorligini oshirishda kredit risklarining ahamiyati va ularni kamaytirish yo'llari	440
Xolmamatov Farhodjon Kubayevich , iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, professor	
Baholash faoliyatini rivojlantirish yo'nalishlari va uning huquqiy asoslari	446
Bobirjon Aktamov , mustaqil tadqiqotchi	
Suv resurslaridan foydalanishni iqtisodiy boshqarish samaradorligini	
kompleks baholash uslubiyoti.....	454
Axmedov Sayfullo Normatovich , t. f. n., mustaqil tadqiqotchi	
Oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot faoliyatini boshqarishni	
takomillashtirish metodologiyasini ishlab chiqish.....	459
Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li	
Daromadlarni qayta taqsimlashda "tashabbusli byudjet" tizimini qo'llashning	
zamonaviy modellari va ulardan samarali foydalanish yo'llari.....	464
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich , dotsenti, iqtisodiyot fanlari nomzodi	
The Impact of Foreign Direct Investment on Economic Growth in Uzbekistan.....	472
Tulkin Imomqulov , PhD Associate Professor	
O'zbekistonda elektron tijoratning rivojlanish bosqichlari.....	478
Karimova Shirin Zoxid qizi , tayanch doktorant	
O'zbekistonda kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyati ijtimoiy-iqtisodiy	
rivojlanishining statistik tahlili	483
Saodat Toshaliyeva Toxirova , PhD	
Современное состояние инвестиционного потенциала Республики Узбекистан.....	490
Топилдиев Соҳибжон Раҳимжонович , DSc; Одилова Дилноза Барнаевна , PhD	
Tijorat banklari kreditlari hajimining barqaror o'sishini ta'minlash	497
J. Y. Isakov , i.f.d., prof.	



O'ZBEKISTONDA KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATI IJTIMOIY- IQTISODIY RIVOJLANISHINING STATISTIK TAHLILI

Saodat Toshaliyeva Toxirova
PhD, Termiz davlat universiteti



Annotatsiya: Ushbu maqolaning dolzarbliji kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyatining respublika ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'sirini statistik baholash zarurati bilan izohlanadi. Ilmiy tadqiqot ishining maqsadi O'zbekiston Respublikasi va hududlar kesimida kichik tadbirkorlik rivojlanishi jarayonida ro'y berishi mumkin bo'lgan iqtisodiy hodisa va jarayonlar holatini statistik tahlil etishga qaratilgan. Ushbu maqsadga erishishda maqolada iqtisodiy statistik va nazariy tahlil usullaridan foydalilanigan bo'lib, unda hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik korxonalari rivojlanishini ifodalovchi ko'rsatkichlar, YaHM hajmi, sanoat ishlab chiqarish, bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari, asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar va xorijiy investitsiyalar hajmi, statistik tahlil qilingan, ilmiy asoslangan holda baholangan, taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: kichik biznes, YaIM, YaHM, innovatsion mahsulot, indeks, sanoat ishlab chiqarish, bozor xizmatlari ko'r-satish, asosiy kapitalga investitsiyalar, statistik tahlil

Abstract: The relevance of this article is explained by the need for a statistical assessment of the impact of the activities of small businesses on the socio-economic development of the republic. The purpose of the research work is aimed at statistical analysis of the state of economic phenomena and processes that may arise in the development of small business in the Republic of Uzbekistan and the regions. In order to achieve this goal, the article uses methods of economic, statistical and theoretical analysis, within which indicators representing the development of small businesses operating in inter-regions, GRP, the main indicators of industrial production, the services market, fixed capital investments and foreign investments of hajmi are statistically analyzed, scientifically evaluated, proposals and recommendations were developed.

Key words: small business, GDP, GRP, innovative product, index, industrial production, market services, fixed capital investments, statistical analysis

Аннотация: Актуальность данной статьи объясняется необходимостью статистической оценки влияния деятельности субъектов малого предпринимательства на социально-экономическое развитие республики. Цель научно-исследовательской работы направлена на статистический анализ состояния экономических явлений и процессов, которые могут возникать в процессе развития малого предпринимательства Республики Узбекистан и регионов. При достижении поставленной цели в статье использованы методы экономико-статистического и теоретического анализа, в рамках которых показатели, представляющие развитие предприятий малого бизнеса, действующих в межрегионах, ВРП, основные показатели промышленного производства, рынка услуг, инвестиций в основной капитал и иностранных инвестиций хаджми, статистически проанализированы, научно оценены, предложения и были разработаны рекомендации.

Ключевые слова: малый бизнес, ВВП, ВРП, инновационный продукт, индекс, промышленное производство, рыночные услуги, инвестиции в основной капитал, статистический анализ

KIRISH

Kichik tadbirkorlik – tadbirkorlik faoliyatining eng keng tarqalgan shakllaridan biri bo'lib, u jamiyatda vujudga kelayotgan ko'pgina ijtimoiy muammolarni bartaraf etishda muhim rol o'ynaydi. Kichik tadbirkorlik aholi qatlamlarini faol iqtisodiy jarayonlarga jalb etish orqali mamlakatdagi ishsizlik muammolarini bartaraf etish, raqobat muhitini yaxshilash, monopoliyaga barham berish, kichik mulk egalari sinfini shakllantirish hamda jamiyatda o'rta mulkdorlar sinfini yaratish uchun muhim shart-sharoitlarni yaratishga yordam beradi.

Shuning uchun rivojlangan mamlakatlarda kichik tadbirkorlikni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratadilar. Chunki kichik tadbirkorlik mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Shu bilan birga, kichik



tadbirkorlik yirik ishlab chiqarish korxonalariga ko'makchi bo'lish bilan bir qatorda mustaqil xo'jalik yurituvchi subyekt sifatida bozor iqtisodiyoti shart-sharoitlariga tez moslashuvchan, iqtisodiy samaradorligi yuqoriligi bilan ajralib turadi. Yevropa Ittifoqi mamlakatlarda yirik korporativ tuzilmalar bilan bir qatorda kichik va o'rta biznes rivojlanishiga ham alohida e'tibor qaratadilar. Yevropa Ittifoqi mamlakatlarda aynan kichik va o'rta biznes korxonalarida deyarli 70 foiz aholi ish bilan band. Ushbu mamlakatlarda kichik tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirishga qaratilgan bir qator davlat dasturlari ishlab chiqilgan. Bizning respublikamizda ham kichik tadbirkorlikni rivojlantirish borasida keng qamrovli ishlar amalga oshirilib, qator chora-tadbirlar tizimi ishlab chiqilmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyatining respublika ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi ahamiyati bo'yicha xorij va MDH mamlakatlari olimlaridan R. Lukas^[14], P. Romer^[15], A. Portes^[16], A. Chepurenko^[19], S. Yegorixina^[7], N. Doronina^[5], I. Cheplyaeva^[20], O. Ponomarov^[12], K. Arshakuni^[2] va boshqalar ilmiy tadqiqot ishlari olib bor-ganlar.

S. G'ułomov^[4], B. Ruzmetov^[17], T. Do'stjanov^[6], T. Shodihev^[21], B. Xodihev^[18], B. Berkinov^[3], O. Rixsim-boyev^[13], U. Inoyatov^[9], I. Jalolov^[8] va boshqa olimlar ilmiy tadqiqotlarida kichik tadbirkorlikning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tendentsiyalari va istiqbollarini statistik hamda ekonometrik tahlil qilish muammolari yoritilgan.

Kichik tadbirkorlik sohasida amalga oshirilgan ilmiy-tadqiqotlarga qaramasdan, kichik tadbirkorlik subyektlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini statistik baholash va uni ekonometrik modellashtirish masalalari yetarlichcha o'rganilmaganligi mazkur mavzuda chuqurlashtirilgan ilmiy-uslubiy izlanishlar amalga oshirishni taqozo etadi.

Kichik tadbirkorlikning mamlakat va uning hududlariga ta'sirini baholashda o'rtacha geometrik usulda hisoblanuvchi integral ko'rsatkichlar tizimidan foydalaniladi. Bunday yondashuvlarni ko'plab ilmiy tadqiqotlarda ko'rishimiz mumkin. Ushbu tadqiqot ishlari kichik tadbirkorlikning hudud ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga qo'shgan hissasini aniqlashda kichik tadbirkorlik rivojlanishidagi asosiy muammo va afzallikkarni baholashga imkon beruvchi turli iqtisodiy ko'rsatkichlardan foydalanilgan. Ular tomonidan ishlab chiqilgan uslubiyot tadbirkorlik subyektlarining hudud ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga qo'shgan hissasini reyting asosida baholash imkonini beradi^[10].

Ayrim tadqiqotlarda kichik tadbirkorlikni hududiy rivojlanish dinamikasiga ta'sirini baholashda kichik tadbirkorlik samaradorligini baholashning ko'p omilli regression tahlil tenglamasidan foydalanilgan^[11].

Lekin ushbu tadqiqotlarda kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini baholashning mintaqaviy masalalariga alohida e'tibor qaratilmagan.

Mamlakat va uning hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish samaradorligi ishlab chiqarish va ijtimoiy soha rivojlanish natijalarini ifodalovchi iqtisodiy kategoriya hisoblanadi. Kichik tadbirkorlik mamlakat va uning hududlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga bevosita ta'sir qilib, yangi ish o'rinnarining yaratilishi, aholi ish bilan bandligi ta'minlanishi, tovar va xizmatlarga bo'lgan talab qondirilishi va aholi turmush farovonligi oshirilishiga olib keladi^[22].

Kichik tadbirkorlikka bag'ishlangan ayrim ilmiy tadqiqotlarda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlarida ish bilan band bo'lganlar sonining bir foizga oshirilishi YalMdagi tadbirkorlik subyektlari salmog'ining 8,056 foizga oshishiga olib kelishini ko'rsatgan^[23].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot ishining metodologik asosi O'zbekistonda kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyati ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi jarayonida ro'y berishi mumkin bo'lgan hodisa va jarayonlar holatini statistik tahlil etishga qaratilgan bo'lib, bunda hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik korxonalari rivojlanishini ifodalovchi ko'rsatkichlar, YaHM hajmi, sanoat ishlab chiqarish, bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari, asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar va xorijiy investitsiyalar hajmi statistik tahlil asosida miqdor va sifat jihatdan ilmiy asoslangan holda baholash, respublika va hududlarda kichik tadbirkorlikning kelgusi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlashdan iborat.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda kichik tadbirkorlik subyektlari rivojini ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga ta'sirini baholash maqsadida kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyati rivojlanishi statistik tahlili amalga oshirildi. Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari bo'yicha statistik tahlil ma'lumotlariga ko'ra respublikamizda 2023-yil 1-yanvar holatiga ko'ra 523600 ta kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyat yuritgan bo'lib, bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan mos ravishda 13,1 foizga ko'pligini ko'rish mumkin (1.2.1-rasm).




1.2.1-rasm: Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik ko'rsatkichlari

		2022 1 yanvar holati			2023 1 yanvar holati			2023-yilda 2022-yilga nisbatan o'zgarishi (% da)
		Soni, birlikda	Jamiga nisbatan ulushi (% da)	Har mingta aholiga togri keladigan soni, birlikda	Soni, birlikda	Jamiga nisbatan ulushi (% da)	Har mingta aholiga togri keladigan soni, birlikda	
1.	O'zbekiston Respublikasi	462834	100%	13,2	523600	100%	14,2	113,1
2.	Qoraqalpog'iston Respublikasi	19998	4,3	10,2	22863	4,2	4,4	114,3
Viloyatlar								
3.	Andijon	34999	7,5	10,7	39038	7,4	14,8	111,5
4.	Buxoro	27690	5,9	14	30082	5,7	19	108,6
5.	Jizzax	19463	4,2	13,4	22474	4,2	21,5	115,4
6.	Qashqadaryo	31152	6,7	9,1	36421	6,9	15,5	116,9
7.	Navoiy	20472	4,4	19,8	22844	4,3	24,8	111,5
8.	Namangan	28949	6,2	9,8	32305	6,1	13,2	111,5
9.	Samarqand	40724	8,7	10,1	47943	9,1	15	117,7
10.	Surxondaryo	24395	5,2	8,8	27368	5,2	12,6	112,1
11.	Sirdaryo	13808	2,9	15,7	15036	2,8	23	108,8
12.	Toshkent viloyati	44156	9,5	15,02	49145	9,3	19,7	111,2
13.	Farg'on'a	40403	8,7	10,3	46350	8,8	15,4	114,7
14.	Xorazm	21984	3,4	11,4	25616	4,8	15,8	116,7
15.	Toshkent shahri	94641	20,4	33	106071	20,2	35,9	112,1

2022-yil davomida 90170 tasi yangidan tashkil etilgan bo'lsa, 29377 tasi o'z faoliyatini tugatgan. Rasm ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, hududlar kesimida eng ko'p faoliyat yuritgan kichik tadbirkorlik korxonalar ulushi Toshkent shahri (20,4%), Toshkent viloyati (9,5%) hamda Samarqand viloyatiga, eng kam ulush esa Qoraqalpog'iston Respublikasi (4,3%), Jizzax (4,2%) va Sirdaryo (2,9%) viloyatlariga to'g'ri kelgan. Kichik tadbirkorlik subyektlarining har 1000 ta aholiga to'g'ri keladigan ulushi bo'yicha bu ko'rsatkich respublika bo'yicha 14,2 tani tashkil etgan. Hududlar kesimida amalga oshirilgan tahlil natijalariga ko'ra eng yuqori ko'rsatkich Toshkent shahri (35,9 ta), Navoiy (24,8 ta), Sirdaryo (23,0 ta) va Jizzax (21,5 ta) viloyatlariga to'g'ri kelgan. Buni ushbu hududlarda EIHLar ko'proq faoliyat yuritayotganligi bilan izohlash mumkin. Qolgan sakkizta hududlarda esa bu ko'rsatkich respublika ko'rsatkichidan pastligini ko'rish mumkin. Kichik tadbirkorlik subyektlari sonining o'tgan yilga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Samarqand (117,7%), Qashqadaryo (116,9%) va Xorazm (116,7%) hududlariga to'g'ri keladi. Surxondaryo (112,1%) viloyatida esa o'rtacha o'sish sur'ati kuzatilgan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarini faoliyat sohalari bo'yicha ko'rsatkichlari tahliliga e'tibor qaratadigan bo'lsak, respublika YalMdag'i ulushi 2022-yilda 51,8 foizni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan mos ravishda 2,6 foizga kamaygan, ushbu holatni sanoatda ham kuzatish mumkin, ya'ni 25,9 foizni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 1,1 foizga pasaygan (1.2.1-rasm).



1.2.1-rasm: 2022-yilda kichik biznesninig faoliyat sohalari ko'rsatkichlari, foizda




Rasm ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, o'sish ko'proq eksport (7,2 %) va importda (0,2%) kuzatilgan. Qolgan barcha sohalarda kamayish kuzatilgan, bunda eng yuqori kamayish xizmatlar sohasi va savdoda (2,7 %) vujudga kelgan. E'tiborlisi, kichik tadbirkorlik o'zining salmoqli ulushini qishloq, o'rmon va baliq xo'jaliklarda (95,3 %), savdoda (79,4%), xizmatlarda (48,4%), qurilishda (71,6 %), investitsiyada (47,6 %) saqlab qolmoqda. Bundan ko'rindan, bugungi kunda kichik tadbirkorlik mamlakat iqtisodiyotini harakatga keltiruvchi asosiy kuchlardan biriga aylanib bormoqda. Lekin 2021–2022-yillar davomida asosiy faoliyat turi bo'yicha eng katta salmoqqa ega bo'lgan kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ular, deyarli ko'p holatlarda past texnologik mahsulotlar ishlab chiqarganiga guvoh bo'lamiz. 2021-yilda sanoat sohasida 19285 ta kichik tadbirkorlik korxonalari tashkil etilgan bo'lsa, 2022 yilga kelib bu ko'rsatkich 16,0 foiz pasa-yish tendentsiyasiga ega bo'lgan. Ushbu sohada tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari asosan, un va non mahsulotlari, trikotaj, qandolatchilik mahsulotlari, mebel va temirdan tayyorlanadigan mahsulotlar ishlab chiqargan. Xizmatlar sohasida umumiy ovqatlanish, ta'lim muassasalari va yuk tashish, savdoda esa do'konlar faoliyati muhim o'rinni tutgani.

Lekin jahon tajribasi tadbirkorlikda innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish shart-sharoitlarini kengaytirishni nazarda tutadi. Bugungi kunda respublikamizda innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirish davr talabi hisoblanadi. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirish, hamda raqobatbardoshlikni ta'minlash uchun faqatgina miqdoriy iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan cheklanib qolmasdan, balki innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish zarur. Qayd etib o'tish lozimki, innovatsion mahsulotlar o'ziga xos raqobat afzalligiga ega bo'ladi. Innovatsion tadbirkorlikni rivojlanishiga bevosita ta'sir etuvchi omillarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- ilmiy-texnik tadqiqotlarni amalga oshirish uchun ajratilladigan mablag'lar yetarli emasligi;
- innovatsion g'oyalarni moliyalashtirishda venchur kompaniyalar hissasining pastligi;
- innovatsion g'oyalarni yaratish va ro'yobga chiqarishda motivatsiyaning zaifligi.

Tadbirkorlik tashabbuskorligi avvalo innovatsion faoliyat samaradorligidan manfatdor bo'lgan kichik tadbirkorlik subyektlardan chiqishi kerak. Bu esa tadbirkorlik faoliyatining innovatsion samaradorligini oshirishga katta yordam beradi.

Hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanganlik darajasi yalpi hududiy mahsulot (YaHM)ning mamlakat yalpi ichki mahsuloti (YalIM)dagagi ulushi hamda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YaHM qismi bilan belgilanadi (1.2.2-rasm).




1.2.2-rasm: YaHM hududlar kesimida, (2022-yil)

YaHMning hududlar kesimidagi ulushiga ko'ra, eng yuqori ulush Toshkent shahriga tegishli ekanligiga guvoh bo'lamiz, uning respublika YalIM dagi ulushi 16,6 foizga teng, keyingi o'rinnlarda Toshkent viloyati 10,5 foiz, Navoiy 7,5 foiz va Samarqand 7,0 foizni tashkil etgan. Eng past ko'rsatkich esa Qoraqalpog'iston Respublikasi, Jizzax, Xorazm va Sirdaryo viloyatlariga tegishli bo'lib, 3,6 foizdan kamligini ko'rish mumkin. Surxondaryo viloyati YaHMining mamlakat YalMdagi ulushi 3,9 foizga teng bo'lib, bu ham deyarli past ko'rsatkichdir.

YaHMning aholi jon boshiga to'g'ri keladigan qismi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Navoiy viloyatiga tegishli bo'lib, respublika ko'rsatkichidan 2,6 marta ko'pligiga guvoh bo'lamiz. Bunga sabab hududda erkin sanoat zonalari ulushining yuqoriligi va aholi sonining kamligidir. Rasm ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, YaHM indeksi Toshkent shahrida 2,0, Toshkent viloyatida 1,3 ga teng bo'lmoxda, ushbu viloyatlarning indeks ko'rsatkichi respublika ko'rsatkichidan yuqori, boshqa hududlarda esa bu ko'rsatkich past. Aholi jon boshiga YaHM indeksi eng past ko'rsatkichi Surxondaryo viloyatiga 0,5 ko'rsatkichga ga to'g'ri kelmoqda.



Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini belgilab beruvchi yana bir eng muhim omillardan biri sanoat ishlab chiqarish hajmidir. Hududlar kesimida sanoat ishlab chiqarish hajmi bo'yicha Toshkent shahri eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lib, uning respublika sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 19,5 foizga teng (1.2.3-rasm). Undan keyingi o'rirlarni Toshkent (16,9 %) va Navoiy viloyatlari (15,3 %) egallab turibdi.




1.2.3-rasm: Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish, hududlar kesimida (2022-yil)

Hududlar kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi bo'yicha eng past ko'rsatkich Namangan (2,75 %), Sirdaryo (2,18 %), Jizzax (1,45 %) hamda Surxondaryo (1,33 %) viloyatlariga to'g'ri kelmoqda. Ushbu hududlar sanoat ishlab chiqarish hajmi bo'yicha boshqa hududlardan orqada qolmoqda va bu hududlarda sanoatni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish zarurligini ko'rsatadi.

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari indeksi bo'yicha ham eng yuqori ko'rsatkich yana Navoiy viloyatiga tegishli bo'lib, 5,2 ga teng bo'lmoqda. Toshkent shahri (2,4), Toshkent (2,0) va Andijon viloyati (1,1) undan keyingi yuqori o'rirlarni egallab kelmoqda. Eng past ko'rsatkich Samarqand, Farg'on'a (0,5), Qashqadaryo, Namangan (0,4) hamda Surxondaryo viloyati (0,2) hissasiga to'g'ri kelmoqda. Eng achinarli holat Surxondaryo hududiga tegishli.


Hududlar kesimida ko'rsatilayotgan bozor xizmatlari ulushini tahlil qiladigan bo'lsak, Toshkent shahri (38,4%) eng yuqori ko'rsatkichga ega ekanligiga guvoh bo'lamic (1.2.4-rasm).



1.2.4-rasm: Bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari, hududlar kesimida (2022-yil)

Undan keyingi yuqori ulush Toshkent (7,3 %), Farg'on'a (6,1 %), Samarqand (6,4 %) viloyatlariga tegishli. Eng past ko'rsatkich esa Qoraqalpog'iston Respublikasi (2,9 %), Xorazm (2,9 %), Jizzax (2,2 %), Navoiy (2,6 %), Sirdaryo (1,4 %) viloyatlariga to'g'ri kelmoqda.


Hududlar bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar hajmiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, Toshkent shahri (21,0 %) yana eng yuqori ulushga ega ekanligiga guvoh bo'lamic (1.2.5-rasm). Undan keyingi yuqori o'rirlar Toshkent (13,0 %), Samarqand (8,1 %), Buxoro (7,8 %) va Navoiy (7,2 %) viloyatlariga tegishli.



1.2.5-rasm: Asosiy kapitalga investitsiyalar, hududlar bo'yicha (2022-yil)

Investitsion faoliyning eng past darajasi Qoraqalpog'iston Respublikasi (3,7 %) va Xorazm (3,3 %) viloyatlariga tegishli. Rasm ma'lumotlaridan ko'rindan, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan investitsiyalar indeksi eng yuqori ko'satkichi Toshkent shahri (2,6), Navoiy (2,5) va Sirdaryo (2,3) viloyatlariga to'g'ri keladi. Undan keyingi o'rinnlarda Buxoro, Toshkent viloyati, Jizzax hududlari mos ravishda (1,4), (1,6), (1,0) indeks ko'satkichlariga ega bo'lib, ularning deyarli barchasi respublika indeksidan yuqoriligiga guvoh bo'lamiz. Qolgan hududlarda esa bu ko'satkich respublika ko'satkichidan pastligicha qolmoqda.

Yuqoridagi tahlillar mantiqiyligin davom ettirgan holda hududlar kesimida asosiy kapitalga o'zlashtirilgan xorijiy investitsilar hajmi o'sishi hamda tarkibiy jihatdan o'zgarishini 1.2.6-rasm ma'lumotlari asosida tahlil qilib o'tamiz.



1.2.6-rasm: Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan xorijiy investitsiyalar, hududlar kesimida (2022-yil)

Xorijiy investitsiyalarni hududlar kesimida jalb etish ko'satkichi ushbu statistik kuzatuva amalga oshirilayotgan hududlardagi korxonalarini zamonaliv xorijiy texnologiyalar asosida modernizatsiya qilish va bozor talablariga javob beradigan raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni nazarda tutadi. Rasm ma'lumotlariga ko'ra eng yuqori ko'satkich yana Toshkent shahriga tegishli. Ushbu hududda faoliyat yuritayotgan xo'jalik yurituvchi subyektlarga jalb etilgan xorijiy investitsiyalarning respublika ko'satkichidagi ulushi 14,2 foizga, shuningdek Buxoro (10,7%) va Toshkent viloyati (8, 72%) ham yuqori ko'satkichlarga ega bo'lmoqda. Bunda eng past 4,4 % dan kam bo'lgan ko'satkich yana Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xorazm, Namangan, Jizzax va Surxondaryo viloyatlariga to'g'ri kelmoqda. Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan xorijiy investitsiyalarning hududlar kesimida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan qismi bo'yicha eng yuqori indeks Sirdaryo (3,5), Navoiy (3,2) viloyatlariga to'g'ri kelmoqda. Yuqoridagi tahlillar bo'yicha eng yuqori ko'satkichlarga ega bo'lgan Toshkent shahri indeksi 1,7 ga, Toshkent viloyati indeksi esa 1,2 ga teng bo'lmoqda. Demak rasm ma'lumotlariga ko'ra oltita hudud indeksi respublika indeksidan yuqori, qolgan hududlarda esa bu ko'satkich pastligicha qolmoqda.



XULOSALAR VA TAKLIFLAR

Amalga oshirilgan tahlillar natijalariga ko'ra xulosa qiladigan bo'lsak, mamlakatimizda kichik tadbirkorlikni innovatsion rivojlantirish uchun texnoparklar, biznes inkubatorlar, ilmiy tadqiqot markazlari, ilmiy laboratoriylar faoliyatiga alohida e'tibor qaratish zarur. Hududlar tahlili ko'rsatishicha, qaysi hududda innovatsion rivojlanish imkoniyatlari yuqori bo'lsa, shu hududda innovatsion mahsulot ishlab chiqarish imkoniyati yuqori bo'lgan. Toshkent shahri, Toshkent viloyati, Navoiy, Buxoro hududlarini innovatsion rivojlanish salohiyati yuqori hudud sifatida talqin etishimiz mumkin. Ushbu hududlarda innovatsion infratuzilma elementlari hisoblangan texnopark, texnopolislardan, biznes inkubatorlar, ilmiy tadqiqot institutlari faoliyati, transfer texnologiyalar markazlarini rivojlanishiga ularni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratish lozim.

Iqtisodiy rivojlanishdan orqada qolayotgan Surxondaryo, Namangan va Xorazm hududlariga ishlab chiqarish salohiyatini e'tiborga oлган holda manzilli qo'llab-quvvatlash dasturlari asosida iqtisodiyotning ustuvor sohalarini rivojlanish zarur.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistoning taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmoni
2. Аршакуни К. Эконометрические моделирование генезиса и динамики малых новых предприятий. Дис....к.э.н. – М., 2020. – 72 с.
3. Berkinov B. B. Ekonometrika. O'quv qo'llanma. – Т., 2015. – 34–39-б.
4. Gulyamov S. S. Tadbirkorlik va kichik biznes. – Т., 2002. – 256 б.
5. Доронина И. Э. Управление развитием предпринимательского потенциала мезоуровня. Дис. уч.ст. к.э.н. – М., 2018. – 72–78 с.
6. Do'stjanov T. Kichik biznesning katta imkoniyatlari. – Urganch: Xorazm, 1997.
7. Егорихина С. Ю. Предпринимательский потенциал населения региона//Экономика региона: проблемы иперспективы развития. № 1 (53). 2011. – 42–50 с.
8. Jalolov I. Korxona iqtisodiy salohiyatining statistik tahlil qilish usullarini takomillashtirish.: Iqt.fan. nomz. diss. avtoref. – Т., 2021. – 14 б.
9. Inoyatov U. U. Hududiy tadbirkorlik faoliyatining statistik usullardagi tahlili:Iqt.fan.nomz.diss.avtoref. – Т., 2018.– 12–17б.
10. Кремин А. Е., Мазилов Е. А. Оценка влияния малого бизнеса на социально-экономическое развитие регионов// Вопросы территориального развития. 2018.№1(41).DOI:10.15838/tdi.2018.2.41.2.
11. Лускатова О. В., Гленкова Е. О., Шалова В. А. Методический подход к экономической оценке влияния предпринимательства на динамику развития региона//Фундамент.исслед. 2013. №2–3. – С. 594–598.
12. Пономаров О. Системная модель предпринимателя и предпринимательской деятельности.Дис... к.э.н. – Москва, 2020. – 122 с.
13. Rixsimboev O. Q. O'zbekiston Respublikasida kichik va o'rta biznesning ustuvor yo'nalishlarini ekonometrik bashoratlash.: Iqt. fan. nomz. iss. avtoref. – Т., 2002. – 22 б.
14. Robert, E. Lucas. (1988). On the mechanics of economic development. // Journal of Monetary Economics 22. 3–42. North Holland.
15. Romer, P. M. (1986). Increasing Returns and Long-Run Growth // The Journal of Political Economy, October. – pp. 1002–1037.
16. Portes, A., Guarnizo, L. E., & Haller, W. J. (2002, April). Transnational entrepreneurs: An alternative form of immigrant economic adaptation. American Sociological Review,67(2). – pp. 278–298.
17. Рузметов Б. Оптимизационные задачи многоагрегатных комплексов. Модели, методы решения, программные модули. – Т.: Фан, 2010. – 124 с.
18. Xodiyev B. Y., Shodiyev T. Sh., Berkinov B. B. Ekonometrika. O'quv qo'llanma. – Т.: Iqtisodiyot, 2018. – 65 б.
19. Чепуренко А. Ю. Малое предпринимательство в социальном контексте. – М.: Наука, 2004. – 480 с.
20. Чепляева И. Е. Предпринимательский потенциал: проблемы формирования и использования в российской экономике. Дис... к. э. н.: 08.00.07. Саратов, 1999. – 168 с.
21. Шодиев Т. Ш., Ходиев Б. Ю. и др. Эконометрика. Учеб. пособие. – Т.: Sharq. 1999.
22. Davis, S., Haltiwanger, J., Schuh, S. (1996). Small business and job creation: Dissecting the myth and reassessing the facts. Small business Economics. Vol 8 (4), pp. 297–315.
23. Norov A. R. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlik subyektlarini kreditlash amaliyotini takomillashtirish i.f.n. ilm. daraj. olish uchun yozilgan diss. avtor. – Т.: TDIU, 2020.
24. Xatamov O., Toshaliyeva S. Surxondaryo viloyati kichik tadbirkorlik salohiyati natijaviyligini ijtimoiy-iqtisodiy baholash usullari va mezonlari //Iqtisodiyot va ta'lim. – 2021. – №.4. – 215–224-б. <https://cedr.tsue.uz/index.php/journal/article/view/159>
25. Toshaliyeva S. Hududiy kichik tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish istiqbollarini prognozlash // Iqtisodiyot va ta'lim. – 2022. – №. 3 (23). – 220–227-и. https://doi.org/10.55439/ECED/vol23_iss3/a33<https://cedr.tsue.uz/index.php/journal/article/view/530>
26. Toshaliyeva, S. T. (2021). Economic and statistical analysis of the development of small business potential in Surkhandarya region // Экономика и предпринимательство. – №. 4. – pp. 778–782.
27. Toshaliyeva, S. T. (2020). The concept of "business potential": essence, economic significance //Theoretical & Applied Science. – №. 3. – pp. 39–42.

Yashil

IQTISODIYOT
va
TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tele.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishtingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

